



UDK: 77:070:94

Jaxongir INAYATOV,
Sarbon universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail: jonikinoyatovpv@gmail.com

Tarix fanlari doktori, dotsent D.Abdullayev taqrizi asosida

SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA FOTOGRAFIYANING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI VA VAZIFALARI

Аннотация

Ushbu ilmiy ishda Sovet davri (1917–1991) fotografiyasining jamiyat hayotidagi o'rni va vazifalari tarixiy jarayonlar kesimida tahlil qilinadi. Fotografiyaning oddiy tasvir vositasidan boshlab murakkab ijtimoiy-madaniy va siyosiy instrumentga aylanish jarayoni bosqichma-bosqich yoritilgan. Tadqiqot davomida inqilobdan keyingi ilk yillarda fotografiyaning yangi siyosiy tuzumni tasdiqlovchi vosita sifatida shakllangani, keyinchalik esa sotsialistik realizm davrida uning qat'iy ideologik nazorat ostiga olingani ko'rsatib beriladi. Ikkinchi jahon urushi yillarida fotografiya nafaqat hujjatlashtirish, balki jamiyat ruhiyatini qo'llab-quvvatlovchi ta'sirchan vosita sifatida ham muhim rol o'ynagan alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Sovet Ittifoqi, fotografiya, sotsialistik realizm, propaganda, Ulug' Vatan urushi, NEP, glasnost, perestroyka, vizual madaniyat, hujjatli fotografiya.

РОЛЬ И ФУНКЦИИ ФОТОГРАФИИ В ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ В ПЕРИОД СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ

Аннотация

В данной научной работе анализируется роль и функции фотографии в общественной жизни советского периода (1917–1991 гг.) в контексте исторических процессов. Поэтапно раскрывается процесс трансформации фотографии из простого средства изображения в сложный социально-культурный и политический инструмент. В ходе исследования показано, что в первые годы после революции фотография формировалась как средство утверждения новой политической системы, а в дальнейшем, в период социалистического реализма, находилась под строгим идеологическим контролем. Отдельно подчеркивается, что в годы Второй мировой войны фотография играла важную роль не только как средство документирования, но и как мощный инструмент поддержки общественного духа.

Ключевые слова: Советский Союз, фотография, социалистический реализм, пропаганда, Великая Отечественная война, НЭП, гласность, перестройка, визуальная культура, документальная фотография.

THE ROLE AND FUNCTIONS OF PHOTOGRAPHY IN SOCIAL LIFE DURING THE SOVIET ERA

Annotation

This research analyzes the role and functions of photography in public life during the Soviet period (1917–1991) within the context of historical processes. It traces the gradual transformation of photography from a simple visual medium into a complex socio-cultural and political instrument. The study demonstrates that in the early post-revolutionary years, photography emerged as a means of legitimizing the new political system, while later, during the era of Socialist Realism, it came under strict ideological control. It is also emphasized that during the Second World War, photography played an important role not only as a documentary tool but also as a powerful means of supporting public morale.

Key words: Soviet Union, photography, Socialist Realism, propaganda, Great Patriotic War, NEP, glasnost, perestroika, visual culture, documentary photography.

Kirish. XX asrda fotografiya ommaviy kommunikatsiyaning eng ta'sirchan vositalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, sovet hokimiyati davrida u nafaqat voqelikni aks ettirish, balki jamiyat ongini shakllantirish, kommunistik mafkurani targ'ib qilish va siyosiy boshqaruvni mustahkamlashning muhim ideologik quroli sifatida xizmat qildi. Sovet davlati fotografiyaning inson tafakkuriga kuchli ta'sir ko'rsatish xususiyatidan keng foydalangan holda uni matbuot, plakat, jurnal va boshqa ommaviy axborot vositalarining ajralmas qismiga aylantirdi. Natijada fotosuratlar orqali "yangi sovet kishisi" obrazi yaratilib, mehnat qahramonlari, sanoatlashtirish jarayonlari hamda kommunistik qadriyatlar targ'ib qilindi.

F. Mo'minov va A. Nurmatov ommaviy kommunikatsiyalar taraqqiyotini tahlil qilar ekan, "zamonaviy ommaviy axborot vositalarining kishilik jamiyatidagi o'rni va ijtimoiy ta'sirchanligini baholash uchun tasviriy vositalarning tarixiy shakllanish jarayonini bilish zarur"ligini ta'kidlaydi. Ushbu fikr sovet davrida fotografiyaning jamiyat hayotidagi

o'rnini anglashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Sovet fotografiyasi axborot berish bilan birga, tarixiy voqealarni mafkuraviy talqin qilish vazifasini ham bajardi. Fotosuratlar orqali davlat siyosati ulug'lanib, jamiyatda yagona siyosiy qarashni shakllantirishga intilish kuzatildi. Shu sababli fotografiya sovet davrida nafaqat madaniy hodisa, balki kuchli siyosiy va ijtimoiy ta'sir vositasi sifatida namoyon bo'ldi.

1917–1991-yillar oralig'ida Sovet hokimiyati sharoitida fotografiya jamiyat hayotining alohida va murakkab qatlamiga aylangan ijtimoiy-madaniy hamda siyosiy vosita sifatida shakllandi. U oddiy tasvir olish texnikasi darajasidan ancha yuqoriga ko'tarilib, bir vaqtning o'zida ham tarixni qayd etuvchi hujjat, ham mafkuraviy ta'sir vositasi vazifasini bajardi. Sovet davlati fotografiyaning ana shu ikki tomonlama tabiatini juda erta anglab yetdi va uni "vizual axborot quroli" sifatida tizimli nazorat ostiga oldi[1].

1917-yil Oktyabr inqilobidan keyingi ilk yillarda yangi siyosiy tuzum o'zini mustahkamlash va jamiyatda legitim asos

yaratish jarayonida fotografiyaga keng tayanadi. 1918-yildan boshlab shakllana boshlagan davlat axborot tizimlari orqali suratlar inqilobiy jarayonlarni hujjatlashtirish bilan birga, yangi hokimiyat g'oyalari ommaga singdirish vazifasini ham bajaradi[2]. Natijada fotografik tasvirlar ko'proq siyosiy yuklama bilan ishlatiladi va "yangi jamiyat" obrazini ko'rinarli shaklda mustahkamlashga xizmat qiladi.

1920-yillar, ayniqsa NEP ("Yangi iqtisodiy siyosat") davri, fotografiya uchun biroz erkinroq ijodiy muhitni yuzaga keltiradi. Bu bosqichda suratlash kundalik hayot manzaralariga, shahar muhitiga va ijtimoiy o'zgarishlarning tabiiy jarayonlariga yaqinlashadi. Biroq bu nisbiy erkinlik uzoq davom etmaydi: 1932-yildan boshlab sotsialistik realizm yagona rasmiy estetik va mafkuraviy mezon sifatida qat'iy joriy etiladi. Shu paytdan boshlab fotografiyaning yo'nalishi ham keskin o'zgarib, real hayotning murakkabligi emas, balki ideal sovet voqeligi tasvirini yaratish ustuvor bo'lib qoladi. Kolxoz hayoti, sanoatlashuv jarayoni va ishchi sinfning "baxtli va barqaror" hayoti asosiy vizual mavzularga aylanadi[3].

1941–1945-yillar, ya'ni Ulug' Vatan urushi davri fotografiyaning funksional doirasini keskin kengaytirgan bosqich sifatida namoyon bo'ladi. Bu davrda fotografiya oddiy hujjatlashtirish vositasidan chiqib, front va front ortidagi hayotni bir vaqtning o'zida qayd etuvchi, shuningdek, jamiyat ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi kuchli vositaga aylanadi. Urush sharoitida yaratilgan fototasvirlar jang maydonidagi real voqelikni saqlab qolgan kam sonli vizual dalillardan biri bo'lib, keyingi tarixiy tadqiqotlar uchun muhim manba vazifasini bajargan[4].

1953-yildan keyingi Xrushchov davri esa fotografiya uchun nisbatan yumshoqroq ijtimoiy-madaniy muhitni yuzaga keltiradi. Bu bosqichda tasviriy materiallar faqat siyosiy voqealarga emas, balki kundalik hayot, madaniy jarayonlar va xalqaro aloqalarga ham ko'proq e'tibor qaratadi. Ayniqsa, 1957-yilda Moskva shahrida o'tkazilgan yoshlar festivali Sovet Ittifoqining tashqi dunyoga ochiqligini namoyish etuvchi muhim vizual hodisalardan biri sifatida tarixda qoladi. Shu bilan birga, fotografiya davlat modernizatsiya siyosatini vizual shaklda asoslash va jamiyat taraqqiyoti haqidagi rasmiy tasavvurni mustahkamlashga xizmat qiladi[5].

1970–1980-yillar, ya'ni Brejnev davrida esa fotografiya yana ko'proq institutsional va rasmiy chegaralar ichida rivojlanadi. Bu davrda asosiy e'tibor davlat marosimlari, siyosiy yig'ilishlar va partiya hayotini hujjatlashtirishga qaratiladi. "Barqarorlik" g'oyasi hukmron ideologik tamoyil sifatida shakllanganligi sababli, fotografik tasvirlar ham jamiyatning muammosiz va ideal ko'rinishini saqlab qolishga yo'naltiriladi. Shu bilan birga, rasmiy maydondan tashqarida, ko'proq norasmiy va mustaqil hujjatli fotografiya yo'nalishlari asta-sekin paydo bo'la boshlaydi[6].

1985–1991-yillardagi qayta qurish va oshkorlik siyosati esa fotografiya tarixida tub burilish nuqtasini ifodalaydi. Bu davrda ilgari cheklangan yoki ochiq yoritilmagan ijtimoiy muammolar, iqtisodiy tanglik va jamiyat ichidagi ziddiyatlar tasvirlarda ancha ochiq ko'rinish ola boshlaydi. Fotografiya endilikda faqat qayd etuvchi vosita emas, balki voqelikni tahlil qiluvchi va tanqidiy yondashuvni ifodalovchi vizual platformaga aylanadi. Natijada SSSRning so'nggi yillaridagi inqiroz jarayonlari ham bevosita fotografik materiallarda o'z aksini topadi[7].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Sovet hokimiyati davrida fotografiyaning jamiyat hayotidagi o'rni va vazifalarini o'rganishda, avvalo, ommaviy kommunikatsiya, jurnalistika tarixi, vizual axborot va mafkuraviy targ'ibot masalalariga oid ilmiy adabiyotlar muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. F. Mo'minov va A. Nurmatovning "Jahon jurnalistikasi tarixi" asarida ommaviy

axborot vositalarining jamiyat taraqqiyotidagi roli keng yoritilib, mualliflar "zamonaviy ommaviy axborot vositalarining kishilik jamiyatidagi o'rni, roli va ijtimoiy ta'sirchanligiga to'g'ri baho berish" zarurligini ta'kidlaydilar [1]. Ushbu fikr fotografiyani ham oddiy tasviriy vosita emas, balki jamiyat ongiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi kommunikativ hodisa sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Mavzuga oid tadqiqotlarda fotografiya ko'pincha tarixiy xotira, hujjatlashtirish va mafkuraviy ta'sir vositasi sifatida baholanadi. Xususan, sovet davrida fotosuratlar matbuot, plakat, ko'rgazma va arxiv materiallari orqali davlat siyosatini ommaga yetkazish, mehnat qahramonlari obrazini yaratish hamda "yangi sovet kishisi" timsolini shakllantirishga xizmat qilgan. Shu jihatdan fotografiya jurnalistika bilan uzviy bog'liq bo'lib, u axborotni nafaqat bayon etgan, balki uni vizual dalil sifatida mustahkamlagan [2].

J.G'. Inayatovning foto faollik tendensiyalariga oid maqolasida fotografiyaning jamiyatda keng tarqalishi va uning ijtimoiy-madaniy jarayonlarga ta'siri masalasi yoritiladi. Muallif fotografiyani inson faoliyatining muhim ko'rinishi sifatida talqin qilib, uning dunyo miqyosida ommalashuvi vizual madaniyat shakllanishiga xizmat qilganini ko'rsatadi [3]. Bu yondashuv sovet davri fotografiyasini faqat texnik yoki san'at hodisasi sifatida emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi ommaviy madaniyat vositasi sifatida o'rganishga asos yaratadi.

Shuningdek, muzeysunoslik va tarixiy merosga oid ilmiy to'plamlarda fotosuratlar tarixiy manba sifatida alohida ahamiyat kasb etishi qayd etiladi. Chunki fotografik materiallar orqali muayyan davrning ijtimoiy muhiti, siyosiy marosimlari, mehnat jarayonlari, kiyinish madaniyati va kundalik hayot manzaralarini tiklash mumkin [4]. Demak, sovet davri fotosuratlar tarixiy voqelikni o'rganishda muhim empirik manba bo'lishi bilan birga, ularning mafkuraviy tahrirdan o'tganini ham hisobga olish zarur.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sovet hokimiyati davrida fotografiya uch asosiy yo'nalishda faoliyat yuritgan: birinchidan, axborot va hujjatlashtirish vositasi; ikkinchidan, mafkuraviy targ'ibot quroli; uchinchidan, jamiyatda yangi ijtimoiy obraz va qadriyatlarini shakllantiruvchi vizual kommunikatsiya shakli. Shu sababli mavzuni tadqiq etishda fotografiyani jurnalistika, tarix, madaniyatshunoslik va siyosiy ideologiya kesishmasida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda vizual manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Sovet davri fotografiyasining jamiyat hayotidagi o'rni va vazifalarini yoritishda fotografik materiallar, davriy matbuot nashrlari va ilmiy adabiyotlar tarixiy manba sifatida tahlil qilindi. Shuningdek, fotografiyaning mafkuraviy, ijtimoiy va axborotiy funksiyalarini aniqlashda kontent-tahlil hamda kommunikativ yondashuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida sovet davri vizual madaniyatining jamiyat ongiga ta'siri tarixiy obyektivlik va ilmiylik tamoyillari asosida o'rganildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Sovet hokimiyati davrida fotografiya jamiyat hayotining siyosiy, mafkuraviy va madaniy jarayonlarida muhim kommunikativ vosita sifatida faoliyat yuritgan. Ayniqsa, 1917-yildan keyin fotografiya davlat tomonidan nazorat qilinadigan ideologik mexanizmga aylantirilib, uning asosiy vazifasi kommunistik g'oyalarni ommaga singdirishdan iborat bo'lgan. Fotosuratlar orqali "yangi sovet kishisi" obrazi yaratilib, mehnat, kollektivizm va partiya sadoqat g'oyalari targ'ib qilingan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1930-yillardan boshlab sotsialistik realizm fotografiyaning asosiy estetik mezoniga

aylangan va natijada real hayotdagi muammolar emas, balki ideal sovet voqeligi tasvirlangan. Kolxozlar, zavod-fabrikalar, mehnat qahramonlari hamda siyosiy rahbarlarning obrazlari markaziy vizual mavzuga aylangan. Bu esa fotografiyaning axborot berish funksiyasi bilan bir qatorda mafkuraviy boshqaruv vositasi sifatida ham faol ishlatilganini ko'rsatadi.

Ikkinchi jahon urushi davrida fotografiyaning funksional imkoniyatlari yanada kengaygan. Front va front ortidagi hayotni aks ettiruvchi suratlar nafaqat tarixiy hujjat, balki jamiyat ruhiyatini mustahkamlovchi psixologik vosita vazifasini bajargan. Urushdan keyingi davrda esa fotografiya davlat modernizatsiyasi, sanoatlashuv va "farovon sovet jamiyati" obrazini shakllantirishga xizmat qilgan.

1980-yillarning ikkinchi yarmida, glasnost va perestroyka siyosati ta'sirida fotografiyada nisbatan erkinlik yuzaga kelib, ilgari yashirilgan ijtimoiy muammolar ham ochiqroq tasvirlana boshlagan. Natijada fotografiya faqat propaganda vositasi emas, balki tanqidiy va hujjatli vizual

manba sifatida ham namoyon bo'ldi. Tadqiqot natijalari sovet davrida fotografiya jamiyat ongini shakllantirish, siyosiy mafkurani targ'ib qilish, tarixiy voqealarni hujjatlashtirish va ommaviy madaniyatni rivojlantirishda muhim ijtimoiy institut vazifasini bajarganini ko'rsatdi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Sovet davri fotografiyasi bir xil yo'nalishda rivojlanmagan, balki har bir tarixiy bosqichning siyosiy va ijtimoiy sharoitiga mos ravishda o'z funksiyasini o'zgartirib borgan. U 1917–1930-yillarda asosan propagandaviy vosita, 1930–1950-yillarda sotsialistik realizm va urush hujjati, 1950–1970-yillarda modernizatsiya va ijtimoiy ideal obrazini shakllantiruvchi vosita, 1970–1980-yillarda rasmiy axborot kanali, 1985–1991-yillarda esa tanqidiy va ochiq hujjatlashtirish shaklida namoyon bo'lgan. Shu tariqa fotografiya Sovet jamiyatida nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki mafkuraviy tizim, tarixiy xotira va ijtimoiy ongni shakllantiruvchi muhim vizual institut sifatida faoliyat yuritgan.

ADABIYOTLAR

1. Clark, K. *The Soviet Novel: History as Ritual*. Chicago: University of Chicago Press, 1997. – pp. 45–67, 112–130.
2. Fitzpatrick, S. *Everyday Stalinism: Ordinary Life in Extraordinary Times*. Oxford: Oxford University Press, 2000. – pp. 23–41, 89–105, 201–215.
3. Kenez, P. *A History of the Soviet Union from the Beginning to Its Legacy*. Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – pp. 56–74, 188–210.
4. Lovell, S. *The Soviet Union: A Very Short Introduction*. Oxford: Oxford University Press, 2013. – pp. 33–52.
5. Paperny, V. *Architecture in the Age of Stalin: Culture Two*. Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – pp. 101–145.
6. Tupytsin, M. "Against the Camera, for the Photographic Archive." *Art Journal*, 1994. – pp. 58–62.
7. Бартнев, И. А. *Фотография как исторический источник*. Москва: Наука, 1984. – с. 25–60, 118–140.
8. Волков-Ланнит, Л. *Искусство фотографии в СССР*. Москва: Изобразительное искусство, 1987. – с. 44–72, 150–178.
9. Лапин, А. *Фотография как....* Москва: МГУ, 2005. – с. 12–38, 79–96.
10. Лотман, Ю. М. *Семиосфера*. Санкт-Петербург: Искусство, 2002. – с. 210–240.